



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



"TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTIDAGI MUAMMOLAR VA INNOVATSIYALAR"

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI

2025-YIL 25-NOYABR

Toshkent-2025



**MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**UZBEKISTAN NATIONAL PEDAGOGICAL UNIVERSITY NAMED
AFTER NIZAMI**

**Collection of the Republican scientific and practical conference on
“Challenges and Innovations in the Theory and Practice of Language
Education”**

November 25, 2025

**“Til ta’limi nazariyasi va amaliyotidagi muammolar va innovatsiyalar”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami
2025 yil 25-noyabr**

**Сборник материалов Республиканской научно-практической
конференции на тему
“Проблемы и инновации в теории и практике языкового образования”
25-ноябрь 2025-года**

Tashkent – 2025

Mundarija

Alimova Mukharam Xayatovna, GENTLENESS AS A REFLECTION OF CULTURAL IDENTITY IN ENGLISH AND UZBEK COMMUNICATION.....	17
Ikromxonova Firuza Ikramovna, Mo‘minova Maftuna Alijonovna, INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI VIZUAL VA VERBAL BELGILAR ORQALI LINGVOMADANIY MAZMUNNING IFODALANISHI.....	24
Kulmatov Baxrom Gulyamovich, INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MATN KOGEZIYASI VA KOGERENTLIGI VOSITALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	30
Mamadaliyev Abdumajit Mamasoliyevich, ABDULHAMID CHO‘LPON ASARLARIDA MILLIY OBRAZ VA URF-ODATLAR TARJIMASI	34
Saydazimova Durdona Xabibullayevna, DEVELOPING READING SKILLS IN ENGLISH: EFFECTIVE APPROACHES AND METHODS.....	39
Saydazimova Durdona Xabibullayevna, DEVELOPING WRITING SKILLS THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE.....	43
Saydazimova Durdona Xabibullayevna, CURRICULUM AND TEACHING MATERIALS DEVELOPMENT: THEORY, PRACTICE, AND INNOVATION IN TEACHER EDUCATION.....	47
Ayupova Mukarram Yuldashevna, DIZARTRIYALI BOLALAR NUTQIY NAFASINI RIVOJLANTIRISHDA KORREKSION ISHLAR.....	52
Ilkhamova Iroda Nuritdinovna, SELF-ASSESSMENT AND PEER ASSESSMENT IN ESP SPEAKING COURSES.....	59
Abdisheripova Shaydo Bahtiyor qizi, O‘QUVCHILARDA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA TADQIQOTINING AHAMIYATI.....	65
Abulkasimova Yulduzxon Sunnatillayevna, CLIL YONDASHUVI YORDAMIDA KIBERXAVFSIZLIKKA OID MAXSUS MATNLARNI O‘RGATISH METODLARI..	71
Ashirmatov Anvar Abdurashidovich, THE EFFECT OF ONLINE LEARNING ON STUDENTS’ ACADEMIC PERFORMANCE..	75
Babajanova Nilufar Tajimuratovna, AFFEKTIV HOLATLARNING TIL ORQALI IFODALANISHI: DRABL ROMANLARI MISOLIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRUVCHI METODLAR.....	79

Tulyaganova Nargiza, GAMIFICATION IN EDUCATION: SYSTEMATIC REVIEW OF STUDENT ENGAGEMENT, MOTIVATION, AND PEDAGOGICAL IMPLICATIONS..	218
Tursunboyev Shohzod Dilmurod o‘g‘li, THE WEAKENING AUTHENTICITY OF MODERN LANGUAGE TESTS.	222
Usarov Ibrohim Ko‘rpashayevich, HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA YANGI STILISTIK YO‘NALISHLAR: NEOSTILISTIKA MASALASI.....	226
Xabibullayeva Muxlisa Saydullo qizi, CODE-SWITCHING IN BILINGUAL SPEAKERS: PATTERNS AND FUNCTIONS IN ENGLISH-UZBEK CONVERSATIONS.....	231
Khamrayeva Charos Norboyevna, THE LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF THE CONCEPT “LOYALTY” (“SADOQAT”) IN KARAKALPAK FOLK ORAL TRADITIONS.	237
Khusanova Saida Burkhanovna, CRITICAL DIGITAL LITERACY IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES.....	242
Йулдошхонов Жавохирбек Дилшодбек угли, ТОПОНИМЫ КАК КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ (НА ПРИМЕРЕ ТАШКЕНТА).....	246
Yuldasheva Omila Odilovna, Mirzayeva Feruza Mirg‘ulomovna, COMPARING TRADITIONAL TEACHING METHODS WITH MODERN APPROACHES IN THE CLASSROOM..	250
Yusupova Muxabbat Anatolevna, INGLIZ TILINI O‘QITISHDA PEDAGOGNING IJODIY VA KASBIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA “TIL PORTFELI” TEXNOLOGIYASINING O‘RNI.....	254
Yusupova Nargiza Nigmatovna, INDIVIDUAL TA’LIM NAZARIYASI.....	258
Кадирова Нилуфар Рустамовна, ЛИНГВОКОНЦЕПТОЦЕНТРИЧЕСКОЕ ОБУЧЕНИЕ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА.	263
Мамадкулова Камила Абдухаликовна, РОЛЬ ЯЗЫКОВОГО ПОГРУЖЕНИЯ В РАЗВИТИИ ФРАНЦУЗСКИХ СИНТАКСИЧЕСКИХ НАВЫКОВ.	268
Мамадкулова Камила Абдухаликовна, ОБУЧЕНИЕ, ОСНОВАННОЕ НА ЗАДАНИЯХ, ДЛЯ ОВЛАДЕНИЯ ФРАНЦУЗСКИМ СОСЛАГАТЕЛЬНЫМ НАКЛОНЕНИЕМ..	272
Марипбаева Нигина Закир кызы, ОСОБЕННОСТИ РУССКОЙ ПУНКТУАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ РЕКЛАМЕ.....	277
Рузиева Насиба Кенжаевна, СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАНЦУЗСКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ ГРАММАТИКИ..	281
Рузиева Насиба Кенжаевна, АУДИОЛИНГВАЛЬНЫЙ МЕТОД В ОБУЧЕНИИ ФРАНЦУЗСКОЙ ФОНЕТИКЕ И ГРАММАТИКЕ..	286

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA PEDAGOGNING IJODIY VA KASBIY- IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA “TIL PORTFELI” TEXNOLOGIYASINING O‘RNI

Yusupova Muxabbat Anatolevna

p.f.f.d. (Phd), dotsent

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitishda pedagogning ijodiy va kasbiy-ijodiy kompetentligini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning, xususan “Til portfeli” texnologiyasining o‘rni yoritilgan. Pedagogik texnologiyalar rivojlanishining tarixiy bosqichlari, ularning ta’lim jarayoniga ta’siri hamda talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, texnologik yondashuv, til portfeli, talabaning nutqiy kompetensiyasi, integrativ o‘qitish, ta’lim texnologiyalari

Ingliz tilini o‘qitishda pedagogning ijodiy hamda kasbiy - ijodiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida mualliflar turli xil pedagogik va boshqa texnologiyalardan, shuningdek innovatsion metodikalardan, faol metodlardan va shaxsiy mualliflik dasturlaridan foydalandilar.

Retrospektiv jabhada tahlil ko‘rsatadiki, pedagogik texnologiyalarning ommaviy kiritilishi XX asrning 60-yillari boshiga borib taqaladi va oldiniga Amerika, keyinchalik Yevropa maktablarini reforma qilish bilan bog‘liq. AQShda “pedagogik texnologiya” tushunchasi paydo bo‘lar-bo‘lmas, u tezda barcha rivojlangan mamlakatlarga tarqala boshladi. G‘arb pedagogik adabiyotida bu tushuncha boshida o‘quv jarayonining texnizatsiya g‘oyasi bilan, ta’limning texnik vositalaridan foydalanish bilan mos tushadi. XX asrning 70-80-yillaridan boshlab o‘quv jarayonining boshqariluvchanligi g‘oyasi mustahkamlandi. Bugungi kunda chet el adabiyotida pedagogik texnologiyalar ilk tushunish ko‘rinishida ham ta’limning boshqarish jarayoni ko‘rinishida ham uchraydi [6].

Levina M.M. (2012) ta'kidlaydiki, pedagogik texnologiya tushunchasining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixida turli xil tushuntirishlar paydo bo'ldi. Texnik vositalar yordamida ta'lim berish deb atalgan ilk talqindan tortib to ta'lim loyihalashtirilgan jarayonini tizimli va uzluksiz tashkil qilish haqidagi tasavvurlargacha bu tarix davom etadi [4].

Ma'lumki, "texnologiya" atamasi yunoncha "techne" – san'at, mahorat va "logos" – ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan. Shuning uchun "pedagogik texnologiya" tushunchasi to'g'ridan to'g'ri tarjimada pedagogik san'at, mahorat to'g'risidagi ta'limotni anglatadi. Selevko G.K. (2006) ning fikriga ko'ra, "pedagogik" va "ta'lim" texnologiyalari tushunchalarini farqlash lozim. *Ta'lim texnologiyasi* nisbatan keng tushuncha hamda ta'lim va o'sib kelayotgan avlod taraqqiyoti jarayoniga turli xil ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-madaniy, boshqaruv, iqtisodiy jihatlarni bog'lanishni nazarda tutadi. *Pedagogik texnologiya* va uning amaliyotdagi realizatsiyasi ta'limning turli xil darajalarida bilim olishning maqsadlari va vazifalarini belgilab beradigan nisbatan konkret jabhalarga ega bo'ladi [5].

Talabalarining ingliz tilidagi nutqiy kompetensiyalarining shakllanishiga va rivojlanishiga yordam beradigan samarali vositalar va shart-sharoitlar pedagogik texnologiyalar va texnologik yondashuv hisoblanadi. Keng ma'noda *texnologik yondashuv* – bu moddiy va ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqish, atrof-muhitni o'zgartirish maqsadlarida inson tomonidan qo'llaniladigan faoliyatning ilmiy va amalda asoslangan tizimidir. Ta'limda va o'qitishda texnologik yondashuv u yoki bu ta'lim yoki pedagogik texnologiyasiga mos keladigan o'quv jarayonini va ta'limni aniq boshqarishni nazarda tutadi.

Ingliz tilini samarali o'qitishda "Til portfeli" texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

"Til portfeli"- bu chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyasi bo'lib, u talabaning samarali o'quv va kognitiv faoliyatini rivojlantirishni va o'quv jarayonining sub'ekti sifatida uning shaxsiy o'sishini ta'minlaydi. Til portfeli - bu talabaning mustaqil ishi uchun hujjatlar to'plami bo'lib,

u uch qismdan iborat: pasport, foydalanuvchining til tarjimai holi va fayl. Pasportda talaba o'zining kommunikativ va kommunikativ bo'lmagan vakolatlarini qisqacha aks ettiradi.

Kapustina T.V. (2019) ning fikri bilan kelishgan holda shuni aytish mumkinki, “Til portfellari” *texnologiyasi quyidagi ko‘rinishlarda faoliyat ko‘rsatadi: tadqiq qiladigan va loyihalashtiradigan fan, ta’limning nisbatan ratsional yo‘li; faoliyatning algoritmlar, usullar va regulyatorlar tizimi; ta’lim va tarbiyaning real jarayoni*. U o‘z jabhalarining barcha kompleksi, yoki ilmiy ishlanma, yoki harakatlar dasturining tavsifi, yoki jarayon sifatida amaliyotda real amalga oshiriladi. “Til portfeli” *texnologiyasi o‘zining maqsadlariga, mazmuniga, qo‘llaniladigan metodlari va vositalariga ko‘ra yetarli darajada ko‘p o‘xshashliklarga ega va bu umumiy belgilarga ko‘ra bir qancha umumlashgan guruhlarda klassifikatsiya qilinishi mumkin:*

1.Keng tarqalgani *avtoritar va didaktikotsentrik texnologiyalar* bo‘lib, ularda pedagog ta'lim-tarbiya jarayonining yagona sub'ekti hisoblanadi, o‘quvchi esa faqatgina ta'sirning “ob'ekti”dir; ta'lim tarbiyadan ustun qo‘yiladi;

2.Shaxs tuzilmasiga yo‘nalganlik bo‘yicha: *informatsion texnologiyalar* (predmetlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanishi); *o‘zini o‘zi rivojlantirish va shaxsga yo‘nalganlik texnologiyalari* (qadriyatga yo‘nalgan va adaptiv; shaxsning ijodiy rivojlanishi, jumladan, loyihaviy texnologiya, tadqiqiy texnologiya, ijodiy ustaxonalar texnologiyasi, hamkorlik texnologiyasi va h.k.); evristik texnologiyalar (ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi); amaliy texnologiyalar;

3.Mazmunning xarakteri va texnologiya tuzilmasiga ko‘ra: ta'lim beruvchi va tarbiyalovchi; dunyoviy va diniy; umumta'limiy va kasbiy yo‘nalgan; gumanitar va texnokratik; turli xil tarmoqli; predmetli; monotexnologik va kompleks texnologiyalar [3].

Bukova G.N. fikriga ko‘ra, bu: *informatsion-kommunikativ texnologiya; muammoli ta'lim texnologiyasi; loyihaviy texnologiya; rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi; o‘yin texnologiyalari; modul texnologiyasi; ustaxonalar texnologiyasi; keys-texnologiya; integrallashgan ta'lim texnologiyasi; hamkorlik*

texnologiyasi; interfaol ta'lim texnologiyasi; guruhiy texnologiyalar; texnologiya – debatlar asosida faoliyat mazmuniga ega bo'ladi [2].

“Til portfeli”- talabaning o'quv faoliyatining ma'lum tajribasi va natijasini ifodalovchi ishchi materiallar to'plamidan iborat. Talaba unga o'quv yillari mobaynida, yoki, muayyan bitta kurs moduli bo'yicha jamlangan barcha ma'lumotlarni, rasmlar, slaydlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar, kichik loyiharini joylashtirishi mumkin.

“Til portfeli”dan texnologiya sifatida foydalanish uchun o'qituvchi yaxlit o'quv mashg'uloti, yoki, auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulot sifatida undan foydalanishi mumkin.

“Til portfeli” asosida: talabalarda lingvistik, grammatik, leksik, pragmatik kompetensiyalari rivojlantiriladi, ilmiy bashoratlash qobiliyatlari shakllanadi; bilim egallashga bo'lgan motivatsiyasi rag'batlantiriladi; guruhdagi barcha talabalarning mustaqil fikrlashiga imkoniyat yaratiladi; turli manbalardan bilim egallashlarida semantik maydon vujudga keladi va bunga zamin yaratiladi; yangi egallangan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, ulardan foydalanish ko'nikmalari shakllantiriladi; darsda egallangan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'lay olish ko'nikmalari rivojlantiriladi; o'qituvchi va talabalarda analitik, tanqidiy, sintetik, ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Shunday qilib, yuqorida ko'rib chiqilgan metodik tavsifga ega bo'lgan fikrlar “Til portfeli” texnologiyasining mazmuni, ularning tasnifi, maqsadlarini yoritib beradi. Shu bilan birga, turli metodikalar va dasturlarni integrativ o'qitishga zamin hozirlaydi. Uning qo'llanilishi texnologik yondashuv nuqtai nazaridan “Til portfeli” texnologiyasini talabalarning nutqiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatini, shuningdek, o'qituvchilarning malakasini oshirish amaliyotida u yoki bu texnologiyani tanlash, konkretlashtirish va eksperimental aprobatsiyadan o'tkazish zaruratini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Букова Г.Н. Инновационные педагогические технологии. Москва: Академия, 2015, С.71

2. Капустина Т.В. Портфель языка как инновационная технология обучения. Санкт-Петербург: Просвещение, 2019, С.18-20
3. Левина М.М. Педагогическая технология: теория и практика. Москва: Флинта, 2012, С.8
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. Москва: Народное образование, 2006,С.32
5. Сластенин В.А.и Руденко Н. Г. Педагогические технологии. Москва: Академия, 1997,С.272

INDIVIDUAL TA'LIM NAZARIYASI

Yusupova Nargiza Nigmatovna

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Xorijiy tillar kafedrası v.b.dotsent, Ph.D.

Annotatsiya

Ushbu maqolada individual ta'lim nazariyasining mazmuni, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada individual yondashuvning nazariy asoslari hamda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, individual ta'lim nazariyasining amaliy qo'llanish yo'nalishlari — individual ta'lim trayektoriyasi yaratish, differensial yondashuv, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, portfolio metodini joriy etish, tutorlik tizimini rivojlantirish va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash masalalari keng yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, individual ta'lim shaxsiy rivojlanish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni shakllantirishda samarali yondashuv ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: individual ta'lim, differensial yondashuv, individual trayektoriya, portfolio, tutorlik, shaxsiy rivojlanish, kompetensiya.